



HOZIRGI O'ZBEK HIKOYALARIDA TARIXIY OBRAZNING BADIY TALQINI

Ne'matullayev Abdunosir

Andijon davlat universiteti
O'zbek tili va adabiyoti yo`nalishi
Magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5595039>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 15-oktabr 2021
Ma'qullandi: 20- oktabr 2021
Chop etildi: 25- oktabr 2021

KALIT SO'ZLAR

*hikoya, tarix, shaxs, nasr,
obraz, personaj, novatorlik,
mafкура, meros.*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada hozirgi o'zbek adabiyoti davrida hikoya janrida yuzaga kelgan o'zgarishlar, tarixiy obraz va personajlarning yangi shakli va turlari haqida fikr yuritiladi. Hikoyalarda tarixiy mavzuning ishlanishi, ulardagi tarixiy hukumdorlar obrazining gavdalantirilishi, badiiy obraz yaratish mahorati kabi qator xususiyatlar tahlilini ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

Qadimdan ilm-u ma'rifatning beshigi sanalgan yurtimiz tarixini chuqurroq o'rganish, ajdodlar ma'naviy merosini tiklash bugungi kunning dolzarb masalalaridan etib belgilandi. Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev aytganidek, «Hamma o'z tarixini ulug'laydi. Lekin bizning mamlakatimizdagidek boy tarix, bobolarimizdek buyuk allomalar hech qayerda yo'q. Bu merosni chuqur o'rganishimiz, xalqimizga, dunyoga yetkaza bilishimiz kerak».¹ Bugungi kunda yosh avlodni sog'lom ruhda tarbiyalash, ma'naviy yuksaltirish yo'lida jamiyatning har bir sohasida qator tadbirlar, amaliy ishlar o'tkazilmoqda. Shu qatorda, badiiy adabiyot sohasida ham millat ongiga vatanparvarlik, insonparvarlik ruhini

singdiruvchi bir qator asarlar yaratildi, yaratilmoqda. Bu yo'lda adiblarimiz umr yo'llari ibratga to'la bo'lgan tarixiy shaxslar hayotidan hikoya qiluvchi ko'plab tarixiy hikoya, qissa, romanlar e'lon qilishdi. Tarixiy shaxslar, ularga bag'ishlangan asarlarning mazmun-mohiyatini chuqur tahlil qilish, turli xil qarashlarni qiyoslash orqali tarixiy shaxslarning asl qiyofasini ochib berish adabiyotshunoslikning dolzarb masalalaridandir.

Adabiyotning eng kichik janrlaridan biri bo'lgan hikoyada tarixiylik mavzusida juda ko'plab ijod mahsullari yaratilgan va yaratilmoqda.

Mustaqillikdan so'ng tarixga, o'tmishga murojaat etish va e'tiborning

¹ Sh.Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. -- Toshkent. "O'zbekiston"-2018. 138-b.



ortishi tarixiy asarlarni yanada yuksalishini belgilab berdi: Jaloliddin Manguberdi, Al-Fargʻoniy, Amir Temur, Mirzo Ulugʻbek, Z.M.Bobur kabi tarixiy siymolarga bagʻishlangan tarixiy hikoyalar yaratildi. Bugungi kunda adabiyotimizda Xurshid Davron, Erkin Samandar, Isajon Sulon, Xurshid Doʻstmuhammad, Boʻriboy Ahmedov, Gʻulom Karimiy, Durbek Qoʻldosh, Hamidjon Homidiy, Temur Qurbonov, Muhammad Uzoqoʻv, Asad Dilmurod, Risolat Haydarova kabi ijodkorlar tarixiy mavzuda bir qator hikoyalar yaratdilar. Ularning hikoyalarida hukmdorlar va ular bilan bogʻliq tarixiy voqealar, olim va shoirlar hayotining maʼlum bir davri qalamga olingan.

Tarixiy hikoyalarni oʻqir ekansiz, undagi qahramonlar bilan bevosita oʻtmishga sayr qilib yurgandek boʻlasiz. Qahramonlar bilan voqealar rivojiga kirib borasiz va uning kuzatuvchisi emas ishtirokchisi boʻlayotganday his qilasiz oʻzingizni. Lekin shuni aytish oʻrinli, tarixiy siymolarning hayotini ochib berish uchun hikoya janri qisqalik qiladi, menimcha. Chunki tarixiy shaxs obrazini, uning hayot faoliyatini koʻrsatib berish hikoya janr uchun qiyinchilik tugʻdiradi. Shunday boʻlsada biz hikoyalar orqali undagi tarixiy shaxslar va voqealar haqida ozmi-koʻpmi oʻzimizga maʼlumot olganday boʻlamiz. Soʻngi yillarda tarixiy hikoyalar salmogʻi bir muncha koʻpaydi. Jumladan, Gʻulom Karimiyning ijodidagi “ Oʻn besh yoshli hukmdor ” “Yoshlik” jurnali 2014-yil, 1-son² deb nomlanadi. Ushbu hikoyada Amir Temur vafotidan soʻng hali Movarounnaxrda sodir boʻlgan taxt uchun kurashlarda oʻzboshimchalik bilan oʻzini hukmdor sifatida koʻtargan Halil Sulon

mirzo taqdiri keltirib oʻtilgan. Garchi u boylıklar yordamida bir necha kiborlarni oʻz tarafiga ogʻdirib olgan boʻlsada, Amir Temurning sodiq kishilari uni zindonga tashlaydi. Ota yurtida sodir boʻlayotgan voqealarga jim qarab tura olmagan Xuroson hukmdori Shohruh Mirzo tomonidan Samarqandning olinishi va unga toʻngʻich farzandi oʻn besh yoshli Mirzo Ulugʻbekning hukmdor sifatida koʻtarishi keltiradi. Hikoyada hali Ulugʻbekning qanchalar yosh ekanligi va uning bilimga chanqoq, ustozlariga boʻlgan hurmati ifoda etilgan. Uning kelajakda amalga oshirajak rejalari ustozlari Qozizoda Rumiylar bilan suhbatlari orqali koʻrsatib beriladi.

Gʻulom Karimiyning “ Koʻragon ” hikoyasi “Yoshlik” jurnali 2010-yil, 12-son – 36-41-bet³ esa Amir Temur hayoti bilan bogʻliq chigal voqealar, Balx viloyati hukmdori Amir Husayn ustidan qozonilgan gʻalaba, Saroymulkihonim bilan tanishuvi va unga uylanish voqealari qalamga olingan. Hikoyada Amir Temur va Amir Husayn oʻrtasidagi ziddiyatlar qanday yuzaga kelganligi ham oʻz ifodasini topgan. Amir Temur va Saroymulkixonim oʻrtasidagi suhbat orqali yozuvchi bizga Saroymulkixonimning qanchalar ziyrak va dono ayol boʻlganli haqida bizga maʼlumot beradi. Saroymulkixonim Temuriylar davridagi eng hurmatga sazovar boʻlgan malikalardan sanaladi. U kishi farzand koʻrmagan. Keyinchalik tugʻilajak shahzodalar tarbiyasi malika zimmasiga tushgan. Xususan, Mirzo Ulugʻbekning yuksak aql-zakovat egasi boʻlib yetishishida Saroymulkixonimning hizmatlari beqiyosdir.

² “Yoshlik” jurnali 2014-yil, 1-son 43-b.

³ “Yoshlik” jurnali 2010-yil, 12-son – 36-41-b.



Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, bugungi globallashuv jarayonida, sharqona hayotimizga g'arb madaniyati bostirib kirib kelayotgan bir davrda tarixga qaytish, undan saboq olish har qachongidan ko'ra muhimroq ahamiyat kasb etmoqda.

Shuni o'z vaqtida anglab yetgan ijodkor tarixni, ulkan bir tarixiy shaxs siyimosini qaytadan badiiy kashf etdi. Ushbu magistrlik dissertatsiyasini yozish jarayonida shunga amin bo'ldimki, tarixiy-funksional o'rganishda, nafaqat badiiy asarga turli davrda turlicha munosabat bildirish, balki tarixiy shaxsga munosabatda ham turli davrdagi qarashlarning o'xshash va farqli jihatlarini o'rganish mumkin. Tarixiy asarda o'tmish voqealari qalamga olinsada, u hamisha zamon xizmatida bo'ladi.

So'ngi yillardagi tarixiy hikoyalardagi tarixiy shaxslar haqida yozishidan maqsad o'tmishni qo'msash, sog'inish emas, bugun kun odamlarining ma'naviy yuksalishiga hissa qo'shish, ko'ngillariga ezgulik urug'ini ekishdir. O'sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik, ajdodlar xotirasiga xurmat, milliy an'analarga sadoqat ruhida tarbiyalash o'zini millat oldida burchliman deb bilgan har qanday ongli insinni o'ylantiradi. Jamiyatda sodir bo'layotgan turli nizolarning bosh sabablaridan biri ham yoshlarning ma'naviy saviyasi pastligi, ongidagi g'oyaviy bo'shliqdir. Xususan, yovuzlik, behayolik, shafqatsizlikni targ'ib etish orqali yoshlarni ahloqiy jihatdan

buzishga qaratilgan badiiy filmlarda jamiyat barqarorligiga rahna solishdan iborat mafkuraviy maqsad yashiringandir. Ongi shakllanib ulgimargan ayrim g'or yoshlarimiz bunday filmlardan ko'pincha turliyovuzlik, shafqatsizliklarni o'rganadi. Buning natijasida ularning diydasiqotadi, qalbida toshbag'irlik, ahloqsizlik kabi jirkanch illatlar joy oladi. Xatto shunday filmlarning qahramonlariga taqlid qilishni istaydigan yigit-qizlar bugungi kunda ham ko'plab topiladi. Chunki ular bunday uydirmalar ta'sirida qo'l urayotgan ishi qanday ayanchli oqibatlarni keltirib chiqarishini tushunib yetmayapdi. Matbuotda e'lon qilinayotgan ko'plab asarlar ham yoshlarning ma'naviyatini shakllantirishga emas, ularning axloqan tubanlashuviga sabab bo'layotgani ham achinarlidir, barchamizni birday o'ylantirishi zarur bo'lgan bugungi kunning muammosi shundaydir. Shu kabi muammolarni bartaraf etishni har bir o'zbek farzandi o'zining bosh maqsadi va burchi deb bilishi kerak.

Adabiyot insonni komillik sari yetaklaydi. Uning o'y-fikrlariga, dunyoqarashiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Insonni o'zgartirish orqali esa ijodkor dunyoni o'zgartira oladi. Biz bugungi kunda ijodkorlarimizdan o'zbek adabiyotini boyituvchi, o'quvchilarni ma'nan va ruhan tarbiyalaydigan asarlar yaratishda davom etishishlarini kutib qolamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Вершинина Л.В., Максимова И.Е. Педагогические условия организации процесса воспитания ответственности у младших школьников из неблагополучных семей в учебной деятельности. Известия Самарского научного центра Российской академии наук. – 2013.



2. Зуев А.М. Проектная деятельность в образовательном процессе. Основы безопасности жизни. – 2014. – №1.
3. Васинович М.А. Современная психология и педагогика: проблемы и решения. – Новосибирск : СибАК, 2017.
4. Чуева М.Ю. От проблемы выбора к осознанности и ответственности. Опыт применения в высшей школе. Личность, семья и общество: вопросы педагогики и психологии. – 2013. – №5.
5. Юркевич В.С. Об индивидуальном подходе в воспитании волевых привычек. – Москва: Знание, 2016.